

“DEVONU LUG’OTIT TURK” ASARIDA KELITIRILGAN HAYVON NOMLARI TAHLILI

Shamsiddinova Iqbol

Ilmiy rahbar

Qurbonova Iroda Bahrom qizi

To’rayeva Nigina Mahmudjon qizi

Termiz davlat universiteti, O’zbek filologiyasi fakulteti

3-bosqich talabalari

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11044570>

Annotatsiya. Ushbu maqolada turkiy lug’atchilik asoschisi bo’lgan Mahmud Koshg’ariyning “Devonu lug’otit turk” asarida keltirilgan, hayvonlarga oid ayrim terminlarning izohi haqida ma’lumotlar berib o’tildi.

Kalit so’zlar: “Devonu lug’otit turk”, Mahmud Koshg’ariy, turkiy xalqlar, turkiy qabilalar.

Абстрактный. В этой статье Махмуд является основателем турецкого словаря. Дана Информация о разъяснении некоторых терминов, связанных с животными, Упомянутыми в произведении Кошгари «Девону луг’отит тюрк».

Ключевые слова: «Девону луг’отит тюрк», Махмуд Кошгари, тюркские народы, тюркские племена.

Annotation. In this article, mahmud, who is the founder of the turkish dictionary Information was given about the explanation of some terms related to animals Mentioned in the work “devonu lug’otit turk” by koshghari

Keywords: “devonu lug’otit turk”, mahmud koshghari, turkic peoples, turkic tribes.

Bilamizki, turkiy tillar tarixini “Devoni lug’otit turk” asarisiz tasavvur qilishimiz qiyin. Asar ichida turli sohalar: geografiya, biologiya, etnografiya, tarjimonlik kabi ilm sarhadlari shunchaki yoritilmaydi, ular tilshunoslik bilan bevosita bog’liq holda beriladi. Ushbu asar nafaqat turkiy tillar balki ularning shevalari o’rtasidagi farq va tafovutlarni Yoritishda haqiqiy ko’zgu desam mubolag’a bo’lmaydi. Asarning, ya’ni lug’atning qiymatini uni tadqiq qilmagan kishi anglolmaydi. Ushbu kichik tadqiqotda men lug’atda Keltirilgan hayvon va qushlar nomlarini, ularning lug’atda berilish uslubini yoritishga harakat qildim. Asarni tadqiq etish davomida unda bir hayvonning nomi va uning turi juda ko’p marotaba uchrashiga guvoh bo’ldim: bular ot nomlaridir. Muallifning o’zi ham bunga sabab qilib turkiy qavmlar hayotida ot hayvoni muqaddas ekanligi va muhim rol o’ynashini aytib o’tadi. Lug’atda keltirilgan ot turlari quyidagicha: Ug’ar at – peshonasida oqi (qashqa) bor ot nomi; Öküş jilqı – qaysar ot; sarkash hayvon; Ozuq at – o’zar ot; uloq poygasida oldin boruvchi ot; Ėrik at – yo’rg’a ot (og’uzlar buni bilmaydilar); Ulduq at – taqasiz ot; Arqun- yovvoyi otdan qochgan xonaki baytal bolasi; u poygalarda eng chopqir ot bo’ladi; Ikiş – bo’ysunmaydigan qaysar ot; Iqilaç – sho’x uchqur ot. Maqol: Alp erig jawritma, iqilaç arqasın jag’ritma – “Botirlarni Ranjitma va holsizlantirma, uchqur ot orqasini yag’ir qilma”; Ükürlük azg’ir – baytallari bor ayg’ir; Qır at – saman ot; Töküz at – peshonasida tangadek oqi bo’lgan ot, qashqa ot; Ozuq at – o’zar ot, uloq poygasida oldinda boruvchi ot.

Keltirilgan ot nomlarining ba’zilari otning sifati bilan bog’liq bo’lsa, ba’zilari uning bevosita nomidir. Masalan, Öküş jilqı – qaysar ot bo’lsa, bunda e’tibor berilish kerak bo’lgan so’z Öküş so’zi va bu otning sifati bilan bog’liq, jilqı – ot so’zining o’sha davrdagi At so’zining sinonimi. Ikiş

– bo'ysunmaydigan qaysar ot so'zida esa bevosita bo'ysunmaydigan ot ma'nosini bitta so'z Ikis ifodalab kelyapti. Ko'rinadiki, bu yerda Mahmud Qoshg'ariy zamonaviy ilm-fanga ham ot turlaridan, tilshunoslikka turkiy tillarning sinonimik xususiyati hamda tilning imkoniyatining naqadar kengligi haqida ma'lumot beradigan noyob asar qoldirganligini anglashimiz mumkin. Undan tashqari Qoshg'ariy ba'zi so'zlarning qaysi turkiy tilga oidligi va hatto boshqa etnografik-tarixiy ma'lumotlar berib o'tadi. Masalan: Ud – sigir (chigilcha). Turkklarning qabul qilgan 12 yilidan biriga ham ud jili sigir yili deyiladi; Ajiğ – ayiq; o'g'uz, qipchoq, yag'mo tillarida aziğ tarzida qo'llaniladi; Üjäs – kichik chivin (o'g'uzcha); Öbkük – sassiqpopishak (chigilcha); Alanir – kalamush jinsidan bo'lgan qo'shoyoq deb atalgan kichik bir hayvon. Turkmanlar uni yeydilar. Ühi – ukki, ko'pchilik turklar bu so'zni Üki deydir, chunki turkiy tilda bo'g'izdan chiqadigan h yo'qdir; Qoç – qo'chqor (o'g'uzcha) asli Qoçitsardir; Arqar – urg'ochi tog' echkisi; uning shoxidan pichoqqa sop qilinadi;

Ayrim keltirilgan misollarda turkiy tillar guruhidagi bir tildagi so'zning boshqa bir shu guruhga kiruvchi tilda boshqa ma'no anglatishi ham asarda aniq berib o'tilgan: Inäk – sigir; o'g'uzlar toshbaqaning urg'ochisini inak deydir. Ayrim hayvon nomlarini izohlashdan tashqari uni maqollar bilan dalillaydi: Atan – axta qilingan tuya; Maqol: Atan jüki ash bolsa, açqa az körünür – “Atanning yuki oziq-ovqat bo'lsa ham, och odamga oz ko'rinadi”. Ėrkäç – taka, erkak echki Maqol: Ėrkäç eti em bolur, eçkü eti jël bolur. Og'laq – uloq, echki bolasi; Maqol: og'laq jiliksiz, og'lan biliksiz “echki bolasida ilik yo'q, yosh bolada aql yo'q” Inän – urgochi tuya; Maqol: Inän inräsä, botu bozlar – “Urg'ochi tuya ingrassa, erkak tuya bo'zlaydi(tovush beradi)”. Bu maqol yaqinlar doim bir-biri haqida qayg'uradilar degan Mazmunda qo'llanadi. Iqilaç – sho'x uchqur ot Maqol: alp erig jawritma, iqilaç arqasın jag'ritma – “botirlarni ranjitma va holsizlantirma, uchqur ot orqasini yag'ir qilma”. Undan tashqari hayvonning bir turini yoshiga ko'ra farqlanuvchi nomlari ham yaxshi yoritilgan: Irk – to'rt yoshga qadam qo'ygan qo'y nomi; Ėnük – yosh arslon (arslon bolasi); yollik bo'ri, tulki, it bolalari; Og'laq – uloq, echki bolasi; Shuningdek, hayvon nomlari jinsiga ko'ra ham farqlanib ko'rsatilgan: Ular – kaklikning erkagi; Ėrkäç – taka, erkak echki; Arqar – urg'ochi tog' echkisi; Inän – urgochi tuya; Botu – erkak tuya; Tütir – urgochi tuya. Shuningdek, qaysidir hayvon nomi xalq orasida boshqa narsaga uning sifatiga o'sha hayvon sifati o'xshaganligi uchun hayvon nomi qo'shilib aytilishi ya'ni metaforik ko'chirilishi ham asarda ayrim hayvon nomlarida qo'shimcha qilib o'tiladi: Asrī – qoplon; ikki rangli ipga Asrī jışig' deyiladi. Ikki rangdagi har bir chipor narsaga ham qoplon rangiga o'xshagani uchun Asrī deyiladi. Ayrim hayvon nomlarining variantdoshligi ham ko'rsatib o'tilgan: Ėşkäk – eshak, Ėşjäk – eshak, Ėşkäk variant ham bor, birinchisi yaxshiroq. Yana quyidagi hayvon nomlari keltirilgan: Übüb (übkük) – popishak qush; A:r: - yoldor bo'ri, sirtlon; Anit – flamingo, g'ozga o'xshash pushti rangli bir qush; Ördäk – o'rdak nomi; Ablan – sichqon jinsidan bo'lgan kichik bir jonivor; Arg'un – uzunligi yarim gaz keladigan sichqon jinsidagi bir jonivor, devor yoriqlaridan chumchuqlarni ovlaydi, qo'yga otlsa, go'shtini sarg'aytirib yuboradi, uyqudagi odamga otlsa, u kishining siydigi tutiladi; Arju – shoqol, chiya bo'ri deyilgan yirtqich bir hayvon;

Ėçkü – echki; Alavan – timsoh; Azg'iraq – quloqlari oq, tanasining ba'zi joylari qora bir turli kiyik. U echki, taka suratidadir; İcürg'an it – qopag'on, quturgan it;

XULOSA

Tadqiq etish davomida asar mohiyatida katta mehnat yotganligini sezish qiyin emas. Muallif asarda so'zga shunchaki tilshunoslik nuqtayi nazaridan izoh berish bilan cheklanmaydi. Har bir

so'zga o'zi to'play olgan etnografik, arealingvistik, qiyosiy tilshunoslik, pragmatik ma'lumotlarni qo'shib, asarning ishonchlilik darajasini Oshirishga harakat qiladi. Lug'at bilan yaxshi tanishgan odam turkiy tillaning haqiqatan anchayin mukammal va boy til ekanligini o'z isbotlari bilan his qiladi. Men ushbu kichik tadqiqotda turkiy tilning ana shu imkoniyatlarini ochib erishda muallif mahoratini asarda keltirilgan hayvon nomlari orqali ko'rsatib berishga harakat qildik.

References:

1. O'zbekiston milly ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent, 2000-2005-y.
2. Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'otit turk. O'zSSR Fanlar akademiyasi nashriyotining Bosmaxonasi. Toshkent, 1960-y
3. G'. Abdurahmonov, Shu. Shukurov, Q. Mahmudov "O'zbek tilining tarixiy grammatikasi ". O'zbekiston faylasuflar milliy jamg'armasi nashriyoti. Toshkent2008
4. Nasimxon Rahmonov, Qosimjon Sodiqov "O'zbek tili tarixi" O'zbekiston faylasuflar milliy jamg'armasi nashriyoti Toshkent 2009

INNOVATIVE
ACADEMY